

## ZAMONAVIY KASB-HUNAR TA'LIMIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK- PEDOGOGIK AHAMIYATI

*Karimova Sevara Zoirjonovna*

*Xorazm viloyati Gurlan tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabining kasb-hunarga yo'naltiruvchi psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yoshlarga kasb-hunar o'rgatish jarayonida nazariy va amalda ishlab chiqarish ta'limini qo'shib olib borilishini o'ziga xos xususiyatlarini hamda o'quvchilarni kasbiy qiziqishlarni, ya'ni shaxs tanlagan kasbining jamiyat va o'zi uchun ahamiyatini anglagan holda, uni muvaffaqiyatli egallash uchun yo'nalgan faoliyati ifodalanadi.

**Kalit so'zlar:** Kasb-xunar, kasbiy qiziqish, bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, tarbiya.

### KIRISH .

Zamonaviy kasb-hunar ta'limida yoshlarga kasb-hunar o'rgatish jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uni o'rganish va amalda tashkil etish esa, o'ziga xos talablarni qo'yadi.

Kasb-hunar ta'limining eng muhim va ahamiyatli jihati - bu jarayonda yosh avlodni mehnat jamoasida o'qib - tarbiyalanishi bo'lib hisoblanadi. Har bir mehnat jamoasi jamiyatimiz an'analari, mehnat va ahloqiy printsiplariga amal qiladi. Bu printsipl va an'analarning yosh mutaxassis shaxsini shakllanishi, muayyan kasbhunar egallashiga ta'sir ko'rsatishi muqarrardir. Bularning hammasini anglash, o'quvchi shaxsi tarkibida kasb-hunarga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va kasb mahoratini egallashi uchun psixologik zamin yaratadi. Kasb - hunar ta'limi tizimi - psixologik didaktik qonuniyatlar va printsiplar asosida yaratilgan, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan pedagogik tashkil etuvchilar (o'qitish mazmuni, uni o'quvchilarga o'rgatish-o'zlashtirish usullari) majmuasidir.

Ularning har biri o'ziga xos xususiy xarakter va aniq psixologik - pedagogik yo'nalishga ega bo'ladi.

Eksperimental tadqiqotlarda aniqlanganidek, ishlab chiqarish ta'limi bu tizimning eng muhim tashkil etuvchisi bo'lib hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish ta'limi, o'qitishning osondan qiyinga (ish usullari-mehnat amallari-mehnat amallari majmuasi -ish turi) ketma-ketligidan iborat muayyan elementlar majmuasidan iborat, deb tushuniladi. Ishlab chiqarish ta'limini bosqich va davrlar bo'yicha amalga oshirilishi, unga xos bo'lgan eng muhim jihat bo'lib hisoblanadi.

Kasb-hunar ta'limi jarayonida o'quvchilar faqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallovchi faol sub'ekt sifatida ishtirok etmaydi. U bir vaqtning o'zida unumli mehnatda ishtirok etadi, ya'ni mehnat jarayonida o'quvchi shaxsi, uning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi ham shakllanib boradi. Bularning hammasi o'quvchilarning kasbiy faoliyat va nisbatan o'ziga xos motivlarini shakllanishini belgilaydi. Bu motiv tarkibiga kasbni yuqoriroq malaka darajasida egallashga intilish, moddiy manfaatdorlik, o'z mehnati bilan jamoada hurmat qozonish kabi tashkil etuvchilarni kiritish mumkin.

Kasbiy qiziqish - shaxs tanlagan kasbining jamiyat va o'zi uchun ahamiyatini anglagan holda, uni muvaffaqiyatli egallash uchun yo'nalgan faoliyatidir. Kasbiy qiziqishlarni shakllantirishni kasbga oid bilimlar berish va ularni o'zlashtirish kabi ikki yo'nalishning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi sifatida ta'savvur etiladi. Texnikumga qabul qilingan ayrim o'quvchilarda o'rgatilayotgan kasbga oid dastlabki qiziqish uyg'onmagan bo'lishi mumkin. Bu holda, ularda eng avvalo, kasbga oid dastlabki qiziqishlarni uyg'otish va so'ngra, ularni kasbiy qiziqishlar darajasigacha rivojlantirish lozim. SHunday qilib, kasbiy qiziqishlarni shakllantirish, o'quvchilarni kasbga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida amalga oshiriladi. SHu bilan birga, kasbiy qiziqishlarning mavjudligi, o'quvchilar tomonidan kasbga oid yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun ham imkoniyat yaratadi [3].

O'quvchilarda maxsus fanlardan o'tkazilayotgan nazariy, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, fan va texnik ijodkorlik to'garaklari mashg'ulotlarida, o'quv xonalarini va o'quv ustaxonalarini jihozlashda ishtirok etishida kasbiy qiziqishlarni shakllantirish mumkin. SHu bilan birga, o'quvchilar kasb mehnat predmetlari bilan tanishishi va ular bilan ishlashi natijasida kasb malakalari shakllantirishga erishiladi. Ularda ishlab chiqarishda sifat va malaka darajasini oshirishga, siyosiy va texnik tasavvurni kengaytirishga, kasbga oid ko'p hayotiy jarayonlar bilan chuqurroq tanishishga intilish uyg'onadi[4].

Kasbiy qiziqishlar va ularni shaxsga ta'siri jamiyat taraqqiyoti jarayonida takomillashib boradi. Texnika va texnologiyaning rivojlanishi ishchilar malakasini va kasblar tarkibiga tub o'zgarishlar kiritib boradi [6]. Kasbiy qiziqishlarning intellektual tashkil etuvchisi ta'lim jarayoni axborotlar texnologiyasi bilan bog'liq bo'ladi. U o'quvchilarni ijodiy izlanishiga, o'z fikrini ifoda etishda faollikka, har tomonlama fikrlashga undaydi. Texnika sohasida muvoffaqiyatli ishlash uchun insonda fazoviy tasavvur etish qobiliyati yetarli darajada rivojlangan bo'lishi zarur.

Texnika bilan bog'liq bo'lgan ishlarda o'quvchilarning muvoffaqiyatli ishlab ketishlari uchun kasb-hunar ta'limi jarayonida o'quvchilar psixologiyasining quyidagi xususiyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi:

texnik kuzatuvchanlik;

texnik ob'ektlarni idrok qilish;

texnik tafakkur, bu topshiriqni bajarishga oqilona yondashish, materiallar xususiyatlarini e'tiborga olish;

bajariladigan amallarni aqliy tasavvur etish;

texnik masalalarni hal etishda yangilik elementlarini kiritishlari.

Kasbiy qiziqishlarning shakllanish jarayoni yaxlit tizimini tashkil etuvchi va alohida funktsiyalarni bajaruvchi bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Kasb-hunar ta'limi va kasbiy qiziqishlar chambarchas bog'liqdir. Ta'lim jarayonida shaxs har tomonlama kamol topadi, tafakkuri kengayadi, dunyoqarashi shakllanadi, tevarakatofidagi borliqni haqqoniyroq idrok qila boshlaydi, fikrlash qobiliyati takomillashadi.

Barqaror kasbiy qiziqishlarni shakllantirish – bu o'quvchilarda tanlangan kasb bo'yicha ahloqiy javobgarlikni, uning ijtimoiy ahamiyatini ongli ravishda tasavvur etishni shakllantirishdir.

Mantiqiy fikrlash bilish jarayonida qiziquvchanlikni rivojlantiradi, ya'ni u yoki bu masalani, muammoni yechishni yaxshi ko'rishni uyg'otadi va bu xayotiy zaruriyat bo'lib qoladi. Yangilarni bilishga o'rganib qolgan odam u xech qachon to'xtamaydi, xamisha bilmagan narsalarni bilishga intiladi va doimo, ba'zan tushunmagan (sezmagani) xolda o'zini oldiga qo'ygan masala va muammoni yechish ustida o'ylaydi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy qiziqishlarni shakllanishi asosan muxandis – pedagog faoliyati va o'quvchilarning o'quv ishlab chiqarish bo'yicha faoliyati kabi ikki tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

kasbiy qiziqishlarni shakllantiruvchi, uning maqsadini amalga oshiruvchi vositalari (metodlar, tashkiliy shakllar, ko'rgazmali qurol, texnik vosita, didaktik materiallar ko'rinishidagi yordamchi vositalar).

boshqaruv sub'ekti – muxandis-pedagog boshqarayotgan tizimni

to'laligicha o'zida mujassamlashtirishi va uni o'quvchilarga bevosita ta'sir ettirish maqsadi tomon yo'naltirishi.

Boshqarilayotgan tizim tarkibiga o'quvchilar jamoasi (u orqali muxandispedagog o'quvchilarga ta'sir etadi), o'quvchi va uning individual pedagogikpsixologik xususiyatlari, o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish faoliyati va uning tashkil etuvchilari ham kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kasbiy qiziqishlarning bunday tarkibiy tuzilishini yaratishda qiziqishlarga oid mavjud tadqiqot natijalari va kasbiy qiziqishlarning o'ziga xosligi asos qilib olingan. Bu xoslik o'quvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajalarida o'z ifodasini topadi. Yoxud, ularni muayyan kasbga oid nazariy bilimlari hamda amaliy ko'nikma va malakalarga intilishi, bo'lajak mustaqil mehnat faoliyatiga ruhan tayyor bo'lishi nazarda tutiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. T. 2011



2. G'afforov Ya.X. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari – T., “Universitet”, 2008.
3. Dadamirzaev G., Yusupov O. Ya., Fayzullaev K. M. Muxandislik ta'limining strategiyasi: keys–stadi yondashish //International scientific journal. – 2016. – №. 1 (1). – S. 32-33.
4. Zokirova D. N. INTEGRATION OF PROFESSIONAL AND
5. EDUCATIONAL DISCIPLINES INTO TRAINING OF SELF-LEARNING
6. MOTIVATED STUDENTS //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2021. – №.
7. – S. 24-28. 5. Отамирзаев О. У., Зокирова Д. Н., Вахобова С. К. Использование интерактивных методов при преподавании электротехники //Science Time. – 2016. – №. 2 (26). – С. 445-448.
8. Otamirzaev O. U., Zokirova D. N. PROBLEMS ARISING WHEN
9. APPLYING THE “BOOMERANG” METHOD IN THE COURSE OF TRAINING
- 10.AND METHODS FOR THEIR ELIMINATION //Scientific Bulletin of Namangan
- 11.State University. – 2019. – T. 1. – №. 11. – S. 270-274.